



KICHIK VOLEYBOL SPORT TURIGA TAYYORLASH AKMEOLOGIYASINI VOLEYBOLGA INTEGRATSIYALASH

Shukurllayev J.M.

ChDPU p.f.f.d. (PhD), dotsent v/b.

Murodova R.M.

ChDPU Jismoniy madaniyat HQS 23/1guruh talabasi

Tayanch soʻzlar: voleybol, akmeologiya, metodika, sifat, talaba, ilm, mexanizm, natija, integratsiya.

Ключевые слова: волейбол, акмеология, методология, качество, студент, наука, механизм, результат, интеграция.

Key words: volleyball, acmeology, methodology, quality, student, science, mechanism, result, integration.

Jismoniy tarbiya darslarida shugʻullanuvchilarni kichik voleybol sport turi asosida jismoniy tayyorgarligini tarbiyalash va ularga akmeologik taʼlim berish, oʻrganilayotgan harakatlar majmuini puxta egallashi va muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvni amalga oshirish, har tomonlama ularning sogʻlomligini mustahkamlash va jismoniy tayyorgarligik darajasini oshirib borish zarur. Ushbu vazifani bajarishda akmeologik yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki mazkur yondashuv oʻquvchilarning jismoniy tayyorgarligini moʻtadil rivojlanishida hamda takomillashishida istiqbolli hisoblanadi. Ushbu sabab mazkur maqola mavzusini tanlashga asos boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”, 2019-yil 8-oktabrdagi PQ-5847-son “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son “Pedagogik taʼlim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatni rivojlantirishga doir boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqolamiz muayyan darajada xizmat qiladi.



Ta'lim muassasalari, jumladan, maktab jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida o'quvchilarning jismoniy sifatlarini oshirishda akmeologik yondashuv o'quv-tarbiyaviy va boshqarish jarayonida jamiyat tomonidan qo'yilgan mustaqil fikrlovchi, muvaffaqiyatlarga erishishga harakat qiluvchi, muloqotga kirishuvchan shaxsini tayyorlash talabining bajarilishini qanchalik amalga oshirishda namoyon bo'ladi. Bunda akmeologik usullar, akmetexnologiyalar o'quvchi jismoniy tayyorgarligining muvaffaqiyatli rivojlanishida tegishli savollarni yechishga amaliy yordam beradi.

Kichik voleybol mashg'ulotlarida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini tarbiyalashni akmeologik yondashuv asosida takomillashtirish vazifasining bajarilishi voleybol sport turiga tayyorgarlik sifatini oshirishga shart-sharoit yaratadi.

Kichik voleybol mashg'ulotlarida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini tarbiyalash akmeologik yondashuv harakatlar majmui, qiyoslash, organizmni individual rivojlantirish, morfo-funksional jihatlarni hisobga olish kabi determinantlarga ustuvorlik berish, mashg'ulotlarda voleybol o'quvchilarning reproduktiv, adaptiv, refleksiv kompetentlik darajalari baholashning past, o'rta va yuqori mezonlari hamda nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish qobiliyatini akmeologik rivojlantirish, o'quvchilarning jismoniy sifatlarini maqsadli va ehtiyojga yo'nalgan hamkorlik shakllari va SMART mezonlari (aniqlik, o'lchamlilik, erishimlilik, resurs bilan ta'minlanganlik, reglament) maqsad belgilash va natijaga mo'ljal olish tamoyillariga ustuvorlik berish asosida takomillashadi.

Bunda akmeologik yondashuv asosida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini kichik voleybol mashg'ulotlari doirasida voleybol sport turi bo'yicha nazariy bilim hamda amaliy malakalar tizimini takomillashtirish texnologiyalari, sifatli pozitiv o'zgarishni intensiv ta'minlaydigan interfaol usullari va ko'nikmalarni rivojlantiruvchi adaptiv kompleks mashqlar tizimini, fiziologik o'sish parametrlari darajalariga integratsiyalash orqali takomillashtiriladi.

Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalashni tatbiq etishda invariant - mashg'ulotlarda o'rganilayotgan harakat aynan voleybolning qaysi jismoniy sifatlarini aniq rivojlantirishi va morfologik - Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalashning fiziologik jihatdan o'sish darajasi bilan bog'liq xususiyatlar inobatga olinishi lozim. Bu esa Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash amaliyotiga joriy etishni osonlashtiradi.



Adabiyotlar:

1. «ZAMONAVIY TA'LIM» jurnali 2021 №1(98).
2. Педагогик таълим инновацион кластери: таъриф, тавсиф, тасниф. Илмий рисола. Ғ.И. Мухамедов, У.Н. Ходжамкулов. ЧДПИ 2019.
2. Shukurllayev J.M. Voleybolga yosh talabalarni tanlashning uslubiy xususiyatlari. ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar. № 1. 2020 yil 2 oktyabr.
3. Shukurllayev J.M. "Maktab o'quvchilarida jismoniy sifatlarni rivojlantirishda akmeologik yondashuvning didaktik asoslari (voleybol turi misolida)" PhD dissertatsiyasi Chirchiq-2023.
4. Shukurllayev J.M. Talabalarni ilmiy va kasbiy faoliyatga tayyorlashda akmeologik yondashuvning mazmuni. "XALQ TA'LIMI" ilmiy-metodik jurnali. 2023. № 5. B. 28-30.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash bo'yicha ko'rsatma va takliflar keltirilgan.

РЕЗЮМЕ

В этой статье представлены рекомендации и предложения по интеграция акмеологии в волейбол для юношеского волейбола.

SUMMARY

This article provides guidelines and suggestions for integrating acmeology into volleyball for the sport of junior volleyball.